

FRANSUZ TILIDA YOSHGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.

Akhrorova Ruzixon Usmanovna

f.f.f.d., (PhD), dotsent

Xoshimova Gulasal Azizjon qizi

20.132 gr. Talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshga oid frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari fransuz tili misolida qisqacha yoritilgan.

Annatation: In this article, the linguistic and cultural characteristics of age-related phraseological units are briefly covered using the example of the French language.

Аннотация: В данной статье кратко рассматриваются лингвокультурные особенности возрастных фразеологизмов на примере французского языка.

Kalitso‘zlar : a l’age du biberon, mois de nourrice (petite enfance), etre a la bavette, d’un certain âge, l’âge des beaux departs, l’âge nomme de discretion, c’est un bel âge.

Keywords: a l’age du biberon, mois de nourrice (petite enfance), etre a la bavette, d’un certain âge, l’âge des beaux departs, l’âge nomme de discretion, c’est un bel âge.

Ключевые слова: a l’age du biberon, mois de nourrice (petite enfance), etre a la bavette, d’un certain âge, l’âge des beaux departs, l’âge nomme de discretion, c’est un bel âge.

Faktik materialni tahlil qilishga kirishishdan oldin “yosh” atamasi ostida nima tushunilishini va olimlar qanday yosh davrlarini ajratib ko‘rsatishlarini aniq belgilab olish zarur. S.I.Ojegovning lug‘atida yosh “davri, insonning, hayvonning, o‘simlikning rivojlanishidagi, o‘shidagi pog‘ona” deb ta’riflanadi [5:86]. Vikipediya ko‘rsatilishicha, “Odatda “yosh” deganda kalendar yoshi (pasport yoshi, xronologik yosh) tushunilib, unda organizm rivojlanishining omillari hisobga olinmaydi. Organizm rivojlanishining kuzatilayotgan individual

o‘ziga xos xususiyatlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlardan farqi “biologik yosh” yoki “rivojlanish yoshi” degan tushuncha kiritilishiga asos bo‘lib xizmat qildi” [3:17].

O‘z navbatida, biologik yosh yoshga oid davrlarga ega bo‘lib, u “inson rivojini homilador bo‘lishdan (yoki tug‘ilganlik paytidan) tortib to o‘lim paytigacha davriylikni ifodalaydi va bu ta’rifga mos keluvchi inson umri bosqichlari yosh chegaralarining jamiyatda qabul qilingan yosh stratifikatsiyasi tizimidir” [4:43]. Shuningdek, hisobga olish zarurki, yosh davrlari u yoki bu muddatlardan, muvaqqat oraliqlardan iborat bo‘lib, ular “ayrim to‘qimalarning, organlarning, organizm tizimlarining va umuman olganda, butun organizmning “morfologik va funktsional rivojining” [6:26] ma’lum bosqichini poyoniga yetkazish uchun zarurdir.

Ma'lumki, frazeologizmlar til egasi bo‘lgan xalqning ma’naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash tarzi, o‘tmishi, intilishi va voqelikka munosabati bilan uzviy bog‘liqdir. “Yosh davr”larining nomlanishi tilda mavjud turg‘un so‘z birikmalari, frazeologizmlar va paremiologik birliklar orqali amalga oshiriladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hanuzgacha tilshunoslikda na fransuz tili misolida va na o‘zbek tili misolida “yosh davr”larining nomlanishlari frazeologik material asosida tadqiq qilinmagan. Frazeologizmlar odatda ijtimoiy va funktsional jihatdan juda rang-barang bo‘lganligi sababli ularni tadqiq qilishda juda ehtiyotkorlik bilan yondashuv lozim[1:189].

Fransuz tilida yosh davrlarini ifodalovchi frazeologik birliklarni semantik jihatdan tahlil qilish jarayonida ularning milliy-madaniy xususiyatlari aniqlandi. Fransuz tilida yoshlik, jumladan bolalik davri, o‘rta yosh, yetuklik va keksalik davrlarini ifodalovchi frazeologik iboralarning leksikografik manbalarda berilishi va matnda qo‘llanilishi semantik nuqtai nazardan tahlil qilindi[2:168].

Fransuz tilida faol qo‘llaniladigan frazeologik birliklar “a l’age du biberon”- chaqaloqlik davri, go‘daklik chog‘lari “mois de nourrice” (petite enfance) – bolaning emadigan davri “etre a la bavette”-beshikda yotgan

chog'larni bildirsa, D'un certain âge - birinchi, ilk yoshlikni, Le premier âge- erta bolalikni "en bas age" esa uch-to'rt yosh oralig'idagi bolalikni anglatadi.

Masalan: Melchior faisait un enfant a sa femme chaque annee, sans s'inquieter de ce que en arriverait plus tard. Deux etaient morts en bas âge.(R.Rolland, L'Aube).

Âge des beaux departs- o'ynab kuladigan yoshlik davrini ifodalaydi, masalan: Il a trente-deux ans, l'âge des beaux departs. (R. MartinduGard, LesThibault).

Âge de discretion- frazeologik iborasi es-aqlini tanib bilgan yosh davrini anglatadi, kontekstga murojaat qilamiz:

Par venu a l'âge nomme de discretion, ma mère m'avait conduit a l'église. (C.Detrez, L'hebreabruler).

Bel âge – frazeologizmi ham bolalikni , ham yoshlikni ifodalovchi bir-biriga yaqin bo'lgan ikkita ma'noni beradi: a) beg'ubor , shirin yoshlik davri: (enfance)

Les parrain et marraine furent... Jean-Baptiste Magnien, bourgeois a Furley, et Pierrette Michelet, sa soeur, "laquelle ne signa a cause de son bel âge". Elle avait trois ans!(A.Mathiez, Autour de Danton).

b) o'zini tanib, esi kirgan yosh davri: (jeunesse)

O d e t t e (a mi-vois). – Trente-cinq ans. C h a b r e l o c h e. – Bah, c'est le bel age, comme dit l'autre. (P. WolffetG.Leroux, LeLys).

- Regarde –moibein, ditlevieillard. C'est aujourd'hui mon anniversaire. Aujourd'hui j'ai eu cent ans. – Ah, dit le jeune homme, c'est un bel âge.Comment cela est-il possible?(I.Cassou, De l'Etoile au Jordin des Plante.)

Foydalanilganadabiyotlar.

1. Akhrorova R.U. "Yosh" tushunchasilingvistiktalqini. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) : 5.938. №2. 2023.03.16. –B.187-190.
2. Akhrorova R.U. Lexical-semantic expression of early youth/jeunesse in french. International scientific and practical in "Modern philological

paradigms: interaction of traditions and innovations II". №41. 2022.04.05. –В.166-168.

3. Википедия. Возраст. [Электронный ресурс]. Режим доступа: [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Возраст](https://ru.wikipedia.org/wiki/Возраст). (мурожаат қилган сана: 23.03.2020).
4. Википедия. Возрастная периодизация [Электронный ресурс]. Режим доступа: [[https://ru.wikipedia.org/wiki/Возрастная периодизация](https://ru.wikipedia.org/wiki/Возрастная_периодизация)]. (мурожаат қилган сана: 14.02.2020).
5. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка М.: Азъ, 1996.

Студопедия. [Электронный ресурс]. Режим доступа: [https://studopedia.su/254040_vozrastnieperiodi.html] (мурожаатқилган сана: 17.01.2020)